

**13-16 iyun kunlari Toshkent kimyo-texnologiya instituti prorektori prof. Z.A.Babaxanova Bolgariyaning "Neofit Rilski" Janubiy-Garb universitetida 10-chi yubiley xalqaro anjumanida ishtiroki hisoboti.**

Janubi-g'arbiy universitetining "Neofit Rilski" fan va matematika fakulteti tomonidan tashkil etilgan 10-chi yubiley xalqaro anjumanida (FMNS - 2023) Toshkent kimyo-texnologiya instituti prorektori prof. Z.A.Babaxanova ishtirok etdi.




Forum 2023 yil 15 iyun kuni Bachinovoda joylashgan universitet markazida rektor, professor Boruslav Yurukov tomonidan ochib berildi. Anjumanda 19 davlatdan, jumladan Bolgariya, O'zbekiston, Belgiya, Germaniya, Misr, Marokash,

Sloveniya, Gretsiya, Italiya, Polsha, Serbiya, Shimoliy Makedoniya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Chexiya, AQSH va boshqa mamlakatlardan olimlar ishtirok etdi.

Forum doirasida asosiy tematik yo‘nalishlar: Kimyo, Fizika, Geografiya, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, Matematika, Informatika, O‘qitish metodikasi bo‘yicha 105 ta ma‘ruza va 82 ta posterlar taqdim etildi.

2023-yil 16-iyun kuni maxsus bo‘limda STEAM ta‘limi – voqelik va istiqbollar bo‘yicha o‘qituvchilar bilan davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti prorektori prof. Zebo Babaxonova mazkur davra suhbatida O‘zbekiston vakili sifatida ishtirok etdi. STEM ta‘lim tizimini rivojlantirish va joriy etishga bag‘ishlangan Davra suhbatida prof.Z.Banaxanova O‘zbekiston Respublikasida STEM ta‘lim tizimida va Toshkent kimyo-texnologiya institutida ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar, hamda AQSh universitetlari, jumladan Wiskonsin-Madison universiteti bilan hamkorlikda institutda tashkil etilgan Maker space tajriba markazi haqida anjuman ishtirokchilarini yaqindan tanishtirdi.



FMNS – 2023 anjumanining asosiy maqsadi - barcha ishtirokchilar, ayniqsa Neofit Rilski davlat universitetining fan-matematika fakultetining yosh olimlari uchun o'zlarining hozirgi ilmiy va ilmiy-amaliy yutuqlarini taniqli olimlarga taqdim etishlari mumkin bo'lgan platformani taqdim etishdir. mamlakatdagi va xorijdagi universitetlar va ilmiy institutlardan. Konferensiya ishtirokchilarga yangi g‘oyalar

va tajriba almashish, aloqalarni yo‘lga qo‘yish va kelajakdagi ilmiy hamkorlik uchun global hamkorlar topish imkonini beradi.

Ilmiy forum “Neofit Rilski” Janubi-Garbiy universiteti rektori – professor, doktor Borislav Yurukov homiyligida hamda Ta’lim va fan vazirligi hamda Ilmiy tadqiqot jamg‘armasi moliyaviy ko‘magida o‘tkazilidi.



Anjuman davomida Bolgariya, Slovakiya, Xorvatiya, Makedoniya universitetlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etildi va STEM ta'lim sohasida hamkorlik qilishga, hamda Erasmus+ loyihalarida birgalikda ishtirok etishga kelishildi.



Davra suhbatlari ishtirokchilari – Bolgariyaning Ta’lim va fan vazirligining Milliy STEM markazi direktori prof. Nayden Chivarov, STEM tizimida faoliyat yuritayotgan maktab va OTM rahbariyati, hamda o‘qituvchilari tomonidan

taqdimotga katta qiziqish bildirildi va O'zbekiston respublikasida 2016 yildan beri ushbu sohaga berilayotgan e'tibor etirof etildi.



Z.A.Babaxanova

16.06.2023